

**Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishdagi muammolar va yechimlar****Eshmatova Sevinch Sherzod qizi**

Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq
va inson huquqlari fakulteti magistratura talabasi

Annotatsiya: Gender tenglik yoki ayollar huquqlari kabi terminlar hozirgi kunda juda ko'p qulog'imizga chalinmoqda, xususan, internetda, televideniye ko'rsatuvlarida va gazeta va hatto, darsliklarda ham. Shu vaqtgacha ham ushbu masala jamiyatimizda ilgari surilganligi aniq, lekin bu mavzu yanada ommalashdi. Shuningdek, xotin-qizlar huquqlari deyilganda e'tibor qaratishni xohlasa, ayrimlar esa shunchaki ensasini qotirish bilan cheklanishadi, xolos. Xo'sh, o'zi gender tenglik, oilaviy zo'ravonlik, ayollar huquqlari qanchalik jamiyatimizga zarur?!

Tarixan olib qaralganda, barcha davrlarda ayol-qizlar ojiz qatlam sifatida ko'rilgan va ularning fikrlari deyarli muhim hisoblanmagan. Ayollar huquqlari uchun bir necha asrlar avval boshlangan bo'lishiga qaramasdan, ma'lumotlarga ko'ra, uning asosiy davri XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan. Bu davrda, ayniqsa, Yevropa va Shimoliy Amerikada ayollar huquqlarini himoya qilish va ularga siyosiy, iqtisodiy huquqlar berish talab qilindi. 1848-yilgi Seneka Falls konferensiyasi (AQSh) shular jumlasidandir. Bu konferensiyada ayollar ovoz berish huquqi va ta'lim olish huquqi kabi asosiy huquqlarni talab qilishdi. Bu voqea, odatda, “xotin-qizlar huquqlari harakati”ning boshlanishi sifatida qabul qilinadi.

Ayollarning saylov huquqi 1893-yilda Yangi Zelandiyada birinchi bo'lib joriy etilgan bo'lsa, keyinchalik, AQSh (1920), Buyuk Britaniya (1928), Fransiya (1944), Shvetsiya (1919) kabi ko'plab davlatlar ayollarga saylov huquqini berdi¹.

¹ <https://www.history.com/topics/womens-history/seneca-falls-convention#what-was-the-seneca-falls-convention>



Shuningdek, xotin-qizlarning huquqlari XX asrda yanada rivojlangan bo'lsa, 1945-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tashkil topishi uning doirasi nihoyatda kengaydi hamda ayollar huquqlarini himoya qilish bo'yicha turli konvensiyalar va hujjatlar ishlab chiqila boshlandi.

Xususan, BMTning Ayollarga qarshi zo'ravonlikni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasi (1993)² va Xalqaro ayollarni kamsitishning barcha shakllariga qarshi konvensiyasi shular jumlasidandir (CEDAW, 1979)³. Bundan tashqari, 1995-yil Pekin konferensiyasi orqali ham ayollarning huquqlari va tengligi bo'yicha dunyo bo'ylab katta kelishuvga erishilgan. Pekin deklaratsiyasi va harakatlar dasturi ayollarni har jihatdan rivojlantirishga qaratilgan yondashuvni ifodalagan.

Xalqaro va milliy miqyosda ayollarning huquqlarini tan olish va tiklash, ularning ta'limi, so'z erkinligi hamda orzu-maqсадlari tomon borishlariga yo'l ochib berish jamiyat hayotida juda muhim. Oilaviy va barcha turdagi zo'ravonliklarga chek qo'yish va ularni himoya qilish har bir millat hamda shaxsning himoyasi deb o'ylayman.

Ushbu masala yuzasidan O'zbekiston Respublikasi huquq tizimida xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishda bir qator ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirdi va mazkur islohotlar hali hamon davom ettirilayotganligi, albatta, quvonarli hol.

Xususan, 2019-yilda qabul qilingan “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi qonun⁴ hamda 2023-yildagi “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 829-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuni ayollar huquqlarining nafaqat jamiyatda, balki oilalarda mustahkamlanishida muhim qadamlardan biri bo'ldi⁵.

² https://www.un.org/en/genocideprevention/documents/atrocity-crimes/Doc.21_declaration%20elimination%20vaw.pdf

³ <https://www.ohchr.org/en/instruments-mechanisms/instruments/convention-elimination-all-forms-discrimination-against-women>

⁴ <https://lex.uz/docs/-4494709>

⁵ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6430272>



Bundan tashqari, Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasining (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) 2024-yil 19-iyunda ratifikatsiya qilinishi ham ayollarga qaratilayotgan muhim e'tibor sifatida hisoblashimiz mumkin⁶.

Ammo, ming afsuski, BMT kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan turli loyiha va islohotlar amalga oshirib kelinyotganligiga qaramasdan, gender zo'ravonlik bo'yicha statistika juda achinarli sonlarni ko'rsatmoqda. Ya'ni, BMTning so'nggi hisob-kitoblariga ko'ra, har yili 50 000ga yaqin xotin-qizlar yaqin sheriklari va oila a'zolari qo'lidan halok bo'ladi⁷. Bu esa har kuni 137 yo'qotilgan hayot degani.

O'zbekiston hududida esa jinsiy sheriklari tomonidan jinsiy yoki jismoniy zo'rlanishga duchor bo'lgan 15-49 yoshdagi ayollar soni 2023-yilda 28 nafarni tashkil etsa, yaqin sherik hisoblanmagan shaxslar tomonidan jinsiy zo'rlanishga duchor bo'lgan ushbu yoshdagi ayollar soni 213 nafarni tashkil etgan⁸. Shuningdek, 2024-yilning 1-choragida Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59²-moddasi, ya'ni oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan 4 343 nafar shaxs ma'muriy javobgarlikka tortilgan bo'lsa, ularning 2 344 nafariga jarima jazosi, 1 999 nafariga esa ma'muriy qamoq jazosi qo'llanilgan⁹.

Afsuski, bu kabi salbiy oqibatlariga olib kelgan statistiklarni uzoq davom ettirishimiz mumkin. Internet manbalarida juda tezlik bilan tarqalayotgan oilaviy-maishiy zo'ravonlik holatlarning oldini olish, xotin-qizlarning huquqlarini ta'minlash, ular va farzandlari uchun xavfsiz jamiyat yaratishimiz zarur.

⁶ <https://www.lex.uz/uz/docs/-6974750?query=ayollar#sr-1>

⁷ Global study on homicide. Gender-related killing of women and girls. Booklet by UNODC-2019

https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/gsh/Booklet_5.pdf

⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining gender statistikasi rasmiy sayti

<https://gender.stat.uz/uz/>

⁹ <https://sud.uz/>;

<https://t.me/SukutSaqlama>

www.innovativepublication.uz



Birinchidan, jamiyatda xotin-qizlarning o'rnini mustahkamlash, ularning ham mustaqil shaxs ekanligini uqtirish, ayollarning ham oilada, ham jamiyatda faolligini oshirish, huquqiy ongini oshirish yuzasidan tegishli chora-tadbirlar olib borish lozim. Xususan, ayollarni ham aqlan, ham jismonan, ham psixologik nuqtayi nazaridan qo'llab-quvvatlash maqsadida turli darsliklar ishlash chiqish, onlayn platforma hamda turli mavzularda o'z savollariga javob topishlari maqsadida bot yoki onlayn murojaatlar qabulini tashkil etishni muhim deb hisoblayman. Chunki ayollarga o'z haq-huquqlarini anglatish va ularning shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash har bir oila tinch-totuvligi va farzandlarning barkamol tarbiya topishida muhim rol o'ynaydi. Turli tashkilotlar bilan hamkorlikda shahar markazlari bilan birgalikda chekka-chekka hududlarda ham xotin-qizlar bilan doimiy uchrashuvlar tashkil qilish, ularning huquqlarini anglatish va ularning ilmini oshirish yuzasidan yordam va maslahatlar berish lozim.

Ikkinchidan, AQSh elchixonasi tajribasidan o'rgangan holda respublikaning turli hududlarida “self-defense camp of women”, ya'ni ayol va qizlarning o'z-o'zini himoya qilish oromgohlarini tashkil etish taklif qilinadi. Shu bilan birgalikda, inson huquqlari va ayol-qizlarning huquqlarini ta'minlash bo'yicha turli yozgi va qishki maktablar ham tashkil etish mumkin. Mazkur loyihalar davomida qatnashchilarning ham jismonan, ham ma'nan sog'lom bo'lishlariga yordam berish, ilmini va dunyoqarashini kengaytirish maqsadlari nazarda tutilishi muhim hisoblanadi. Turli tajovuzlar vaqtida o'zini-o'zi himoya qilish yoki qay tarzda tegishli joyga xabar berish kabi ko'nikmalar har bir ayol-qizda shakllantirilishi zarur.

Uchinchidan, er-xotin o'rtasidagi nikohdan ajratish munosabatlarining muddati va unga aloqador ba'zi hujjatlar qayta tahlil qilinishi va o'zgartirilishi lozim. Xususan, mahalla institutidan olinadigan xulosani bekor qilishni nazarda tutadi. Chunki oilaviy munosabatlar, asosan, ikki shaxs o'rtasidagi munosabatlarga asoslangan bo'lib, ularning aslida bir-birlari bilan qanday aloqada bo'lishlari haqida hech kim to'liq ma'lumotga ega bo'la olmaydi. Misol uchun, qo'shnilariga yoki mahallada yashovchilarga bildirmasdan ham ayol kishiga ozor berilishi, domiy ravishda jismonan va psixologik qiynash holatlari jamiyatimizda yo'q emas. Shu sababli tomonlardan biri tomonidan ikkinchisiga



o'tkazilayotgan zulm, shafqatsizlik holatlari orqali murojaat etilganda, muddat masalasini uzaytirmaslik, ba'zi qog'ozbozlik holatlarini kamaytirish, mahalla institutidan tegishli xulosa taqdim etish bosqichlarini olib tashlash taklif etiladi.

Zero, har bir inson teng huquqli shaxsdir. Har kim o'z qadr-qimmatini anglashi, huquqlari uchun kurashishi va boshqalarning ham huquqlarini himoya qilishda faol ishtirok etishi zarur. Hech bir an'ana yoki qadriyatlar insonlarning xavfsizligiga, ularning erkiga, yashash sur'atiga, o'z xohishlariga qarshi qaratilmasligi va cheklamasligi lozim. Shuningdek, universallik asosida amalga oshirilayotgan harakatlar turli millat vakillarining sof mentaliteti va xulq-at'voriga zararli ta'sir o'tkazmasligi lozim. Agar milliy urf-odatlarimiz va universallik konsepsiyalari o'rtasida mana shunday muvozanat saqlansa, har bir insonda teng huquqli va adolatli jamiyatda yashash imkoniyatlari yanada kengayadi.

Foydanilgan manbalar:

1. Seneca Falls Konvensiyasi;
2. Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasi;
3. Xalqaro ayollarni kamsitishning barcha shakllariga qarshi konvensiyasi (CEDAW, 1979);
4. BMTning Ayollarga nisbatan zo'ravonlikni tugatish to'g'risidagi Deklaratsiyasi;
5. Pekin deklaratsiyasi;
6. “Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida”gi 561-sonli O`RQ;
7. “Xotin-qizlar va bolalar huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish tizimi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida”gi 829-sonli O`RQ;
8. Global study on homicide. Gender-related killing of women and girls. Booklet by UNODC-2019.
9. https://www.unodc.org/documents/data-and-analysis/gsh/Booklet_5.pdf ;
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining gender statistikasi rasmiy sayti: <https://gender.stat.uz/uz/> ;
11. <https://sud.uz/>
12. <https://t.me/SukutSaqlama>